



International Scientific and Practical Conference on the
topic: " Sustainable Architecture – Challenges and
Achievement of the Present and Future"



FACTORS AFFECTING THE VOLUME-PLAN STRUCTURE OF MULTI-STORY HOUSES

Abduraimov Sh.M.

*Samarkand State University of Architecture and Construction, associate professor
e-mail: sherzodabduraimov@mail.ru*

Bektemirov J.M.

Samarkand State University of Architecture and Construction, Faculty of Architecture, master

Annotasiya: Mazkur annotasiyada O‘zbekistonning iqlimiga mos turar-joy binolarini loyihalash, yangi tiplarini yaratish, respublikamiz arxitekturasi va shaharsozlikning dolzarb muammolari, loyihalanayotgan ko‘p qavatli turar joy majmualarining eng qulay hajmiy-rejaviy tuzilishini aniqlash, qolaversa jamiyatimizda istiqomat qilayotgan aholini yashsh tarzini yaxshilash, iqlim sharoitining bevosita ta’siridan kelib chiqib, zamonaviy loyihalar taqdim etish, ko‘o qavatli turar joy binolarini loyihalshda infratuzilmasini shakillantirish kabi omillar ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: O‘zbekiston, turar uy-joy, iqlim, QMQ, me’moriy yechimlar, infratuzilma, tabiiy-iqlimi, shaharsozlik, majmular, jamiyat.

O‘zbekistonning quruq issiq iqlimiga mos turar-joy binolari arxitekturasi va loyihalashtirishni takomillashtirish va yangi tiplarini yaratish, respublikamiz arxitekturasi va shaharsozlikning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan mamlakatimiz viloyatlarida ko‘p qavatli turar joy majmuasining eng qulay hajmiy-rejaviy tuzilishini aniqlash uchun asosiy shakllanishini va ularni takomillashtirish omillarini tadqiq etish kerak.

Shunday omillar qatoriga: sotsial - demografik, milliy aholining o‘ziga xos xususiyatlari va turar joylarni funksiyaviy tashkil etish, tabiiy-iqlimi, sharoiti moddiy texnik bazasi va x.k. kiradi

1. Sotsial-demografik omillar.

Bu omillarni urganishda juda ko‘p mutaxassislar: aholishunos, psixologlar, demograflar, arxitektorlar, o‘z ilmiy ishlarini bagishlaganlar. Ko‘rsatgichlarning jami aholi tarkibiga ko‘ra ko‘proq yoshi va jinsining, oila va uning dinamik o‘sishi va sotsial-strukturaviy tuzilishlari turar-joy uylarini loyihalashda asosiy omil bo’lib hisoblanadi.

Sotsial - demografik tadqiqotlarning aholi turli kontengenti uchun mos uylar turini va ularning kvartiralar tizimini aniqlash hamda ko'rish bo'yicha, ularni ilmiy asoslab beradi.

O'zbekiston Respublikasi shaharlar aholisi demografik xarakteristikalarini o'rganish asosida har xil tipdagi uylar va kvartiralar loyihalashning yangi, sifatli va yuqori saviyaga ko'tarishda yordam beradi. O'zbekiston aholisining sotsial-demografik xarakteristikalarini juda xilma-xildir, chunki respublikada 40 dan ortiq millat va elatlar yashaydi. Shunga qaramay, aholining turar-joy, yashash sharoitini yaxshilash nuqtai nazaridan qaralsa, asosiy sotsial-demografik ko'rsatgichlarni shakllantirish mumkin. Oilaning xajmi, oila a'zolarining jinsi, yoshi, ma'lumoti, bandlik xarakteri, oilaning ichki va tashqi aloqalar sistemasi va boshqalar turar joyning xarakteriga shaharda joylashuvining o'ziga xosligiga, m'aishiy xizmat ko'rsatishi, dam olish tizimlarini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Turar joyning sotsial ahamiyati jamiyatimizning sotsial-keng ko'lamdag'i iqtisodiy rivojlanishiga O'zbekiston Prezidenti va hukumatining iqtisodiy va sotsial siyosati tufayli xalqimiz yangi bosqichiga o'tadiki, bu o'z-o'zidan aholining yangicha hayot tarzini paydo qiladi, mehnatkashlar yashash sharoitining yaxshilanishi va usishiga olib keladi, ishchi va dehqonlar yangi-yangi sifatlarga ega bo'ladi va turmush tarzi ziyolilarga yakinlashadi. Buning oqibatida oilada yangi sifatlar-butun oila a'zolarining ma'naviylashuvi oshib borib, aholining barcha sotsial guruhlari uchun shinam va qulay sharoitlarning yaratilishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Respublika hukumatining olib borayotgan keng ko'lamdag'i iqtisodiy va sotsial siyosati tufayli o'zbek oilalarining o'ziga xos ilgor an'analarini, - boshqa millat va elat yashash tarixini an'analarini hurmat qilgan holda baynalminal va boshqa millat oilalarining sotsial demografik holatlari aynan shu nuqtai nazaridan o'rganildi va tadqiqot olib borildi.

Aholining sotsial tarkibini so'ngi paytlarda arxitektura va aholishunoslik fanlarining aholining turar joyga bo'lgan talablarini (ularning ijtimoiy kelib chiqishidan, ma'lumotlilik darajasidan, kasblaridan kelib chiqgan holda) o'rganish maqsadida bir qancha sotsiologik kuzatishlar va tekshiruvlar o'tkazilmoqda.

Aholining oilaviy tuzilishi, oila strukturasi, jinsiy yoki yoshiga ko'ra oila tarkibining u yoki bu tomonga o'zgarishi, an'anaviy urf-odatlari o'ziga xosligi respublikada uylar tizimi tiplari va ularning yashash xonalarining shakllanishi va tashkillashtirishda katta rol uynaydi. Respublika aholisining o'ziga xosligi shundaki, kam sonli oilalar juda kam foizni tashkil etadi. Kam sonli oilalarning nisbatan yukori kursatgichlari ayniksa, sanoat shaxarlari xisoblangan Fargona, CHirchik va Navoiyda ko'prok kuzatilib, Samarkand, Guliston, Karshi, Buxoro kabi viloyat markazi shaxarlarda bu kursatkichlar ancha pasayadi. (18,7-16,5%). Sanoat rivojlangan shaxarlarda ayniksa, ukuv yurtlari ko'p bulgan joylarda yosh avlod ko'pchilikni tashkil kiladi. Uzbeki ston shaxarlari aholisining demografik xarakteristikasi tubdan fark kiladi. 1970 yil sobik Butun ittifok aholini ruyxatga olish ma'lumotlariga ko'ra shaxar oilalarining o'rtacha kattaligi 4,5 kishiga tugri kelishi o'ziga xos xususiyatlardan hisoblanad. Bunday yukori kursatgich respublika buyicha katta oilalar (6 kishi va ko'prok)ning nisbatan ko'pligi sabablidir. Bunday oilalar 1979 yil tekshiruviga ko'ra 42%ni tashkil etadi.

O'zbekistonda katta oilalarning usib borishi, aholining tabiiy usishi yuqori ekanligini kayd etish zarur:

1939 yil -22,3% bulsa (shu xisobdan 14,2 % shaxarlarda) 1945 yilda esa 29,8% (19,7% shaxarlarda)ni tashkil etadi.

Uylarning turlarini aniklashda chikishda oilalarda bolalar sonidan tashkri emas, balki tugilishidagi oralik ham ahamiyatga ega. Olib borilgan tadkikotlarga ko'ra bu oralik 1-2,5 yilni tashkil etadi. Bu zayldagi, maxalliy aholining oilalardagi tugilishning yukori kursatkichlari, aksincha boshqa rusiy zaboi millat oilalaridagi tugilishning juda past kursatgichlari aholining o'ziga xos strukturasini yuzaga keltiradiki, bu o'z navbatida turar-joy maskailari nomenklaturasiga nisbatan o'ziga xos talablar keltirib chikaradi. Bu xolat aniklik kiritish uchuy xech bulmasa umumiy kurinishdagi oilaviy strukturalarning kelajakda uzgarishlarini oldindan ko'ra bilish zarur.

U kuyidagi omillarda o'z aksini topadi; xar xil guruxiy shaxarlarda xozirgi kunda aholi tugilishi yukoriligiing saklanib kolishi va yaqin kelajakda esa tugilishning kamayishi; umr uzayishi va ulim soniniig kamayishi; murakkab oilalarning tuzilishi kabi faktorlardir. Uzbekistan shaharlarida oilaviy struktura va aholi usishining diiamikasi juda xilma-xildir. 2 jadvalda Toshkent shahri va rerspublikaiig boshqa sanoat shaharlarida oila xajmining o'rtacha ko'rsatgichlari keltirilgan

O'zbekistoi shaharlarida eng ko'p tarqalgan oila turlaridan 3-4 bolali oilalardir. (46-57%). Tekshirishlar shuni kursatadiki, xar bir maxalliy oilalarda 1 ta yoki ikkala qariya (ota-onasi) ham birgalikda yashaydi. (oddiy oilarining solishtirma nisbati 75% ni tashkil qiladi)

Oilada oila a'zolari soniniig ko'pligi, tugilishning yukoriligi, oila turmush tarzining katta xajmi ko'prok er-xotin zimmasiga tushishi maxalliy aholi oilalarining o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanad.

Oilalar dinamikasi. Turar - joy nafaqat oila tarkibi va uning strukturasi talablarigagina emas, balki uning o'zgarishlariga ham javob berishi kerak. K.Kartasheva uslubiyotiga ko'ra, oila rivojlanishi 3 davrni ajratib ko'rsatish mumkin. 2-ta davr - oilaning shakllanishi va rivojlanishini o'z ichiga oladi; bu davrda 1- nchi galda oila soniniig o'zgarishi turadi. 2-nchi davrda shakllangan oilaning va rivojlanishi, oila a'zolari sotsial huquqlarining va yoshining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lган holda. Oilaning hayotiy faoliyatini pedagoglar, vrachlar, psixologlar va arxitektorlarning fikriga ko'ra 5-ta siklga bo'lish mumkin. O'zbek oilalarining hayotiy faoliyati vaqtga nisbatan o'zgarishi bilan ajralib turadi. O'zbek oilalarining 5-nchi sikli - faoliyati pensiya oldi davri, shuningdek pensiya (erta, urta va kechki) davrga tugri keladi. Er-xotin pensiya oldi davrida faol mehnat va madaniy-maishiy faoliyatini davom ettiradi, mehnat qilishga layoqatlidir; oila boshligi oilani boshqaradi hamda bolalariga ham yordam beradi. O'rta pensiya davrida er-xotin jamoatchilik ishlarida ishtirot etmasada, oila umumiy hayotida va jamoatda ishlarida ishtirot etib, ugillardan birortasi bilan birgalikda yashaydi. 1980-2000 yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek oilalarining farzandalari alohida ajralib yashashlari, sotsial- iqtisodiy rivojlanishi va ilmiy texnik taraqqiyot hisobiga yangi sifat bosqichiga otadi hamda O'zbek oilalari ham kelajakda 7- sikllik hayot tarziga o'tishi mumkin.

Yoshi va jinsiy strukturasi. O'zbekiston shaharlari aholisining yoshi va jinsiy strukturasi geografik joylashuvi, etnik kelib chiqishi va xajmiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Erkak va ayollar sonining mutanosibligini, aholining o'rtacha yoshi necha foiz ekanligini aniq tasavvur qilish muhimdir. Mana shu o'zaro munosabatlar aholining turar joyga bo'lган talablarini aniqlashtiradi. O'zbekiston aholisining yoshiga ko'ra piramidasi quyidagi ko'rinishga ega: ahloining 0 yoshidan 24 yoshigacha 53,42% ini, o'rta yoshli - 38,25% ini tashkil etadi. Aholining yosh va jinsiy strukturasi shaharlar boyicha bir-biridan farq qiladi.

Sanoat shaharlarida mehnatga layoqatli aholining va yosh bolalarning ko'pligi o'ziga xosdir (Fargona, Navoiy, Olmalik, Chirchik). Sanoat kam rivojlangan Xiva va Shahrisabz kabi shaharlarda

nisbatan qariya va bolalar soni ko'pchilikni tashkil etadi. Respublikada 0 dan 44 yoshgacha bo'lган ayollar va erkaklar soni teng bo'lsa, 55 yoshdan oshgan ayollar soni erkaklar sonidan ko'proq.

Shunga ko'ra, respublikamizda: tug'ilish yuqori va olim kam; aholining tabiiy ko'payishi yuqori; 0 yoshdan 44 yoshgacha bo'lган ayollar va erkaklar sonining tengligi; urta yoshlilar guruhining oshib borishi, 55 yoshdagi aholi o'rtasida ayollar sonining ko'pligi yosh va jinsiy strukturasining o'ziga xosligini namoyon etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. КМК. 2.07.01-94 Градостроительство. Планировка и застройка городских и сельских поселений. Т. ГКРУ по архитектуре и строительству, 1994.
2. Б.К. Степанов, Л.К. Великовский, А.С. Тарутин “Основы планировки населенных мест” М.: Высшая школа, 1985.
3. Matchanov.B.G. TAQI ilmiy konferensiyadagi maqola T. 2018 y.
4. H.M.Ubaydullayev “Turar-joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik
5. asoslari“ kitobi, T. 2009 y.
6. D.U.Isamuhamedova “Turar-joy tumani loyihasi“ o'quv qo'llanmasi,T.2005 y.
7. B.I.Inog'omov, “Turar-joy binolarilarini arxitekturaviy loyihalash” o'quv-qo'llanma, T. 2015 y.
8. O'zbekiston tarixi, T.II. Toshkent Bartold.V.V. “Istoriya kulturniy Turkistana” M. 1951 y.

Internet saytlar:

1. www.xonodon.o'z;
2. www.archunion.com.ua (Arxitektura ensiklopediyasi);
3. www.lex.o'z (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari portalı);
4. www.natlib.o'z (“Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi rasmiy sayti);